

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137

TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari

markazi mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Tel: +998 9909032818

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. mazkur maqolada talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishning pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik asoslari, ilmiy izlanish kompetensiyalarini shakllantirishda boshqaruvning o'rne va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish amaliyotining hozirgi holati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik-psixologik, ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqot, talaba, rahbar faoliyati, ta'limni boshqarish, tajriba sinov, ilmiy-metodik.

ENGAGING STUDENTS IN SCIENTIFIC RESEARCH: PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL AND SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Bekmuradova Gulnoza Makhmudovna

Independent Researcher at the Center for

Higher Education Development Studies,

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article discusses the pedagogical-psychological and scientific-methodological foundations of involving students in scientific research activities. It outlines the role of management in developing scientific research competencies and examines the current state of practices aimed at guiding students toward research work.

Key words: pedagogical-psychological, education system, scientific research, student, leadership activity, education management, experimental testing, scientific-methodological.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-23>

O'zbekiston taraqqiyot yo'lining izchilligi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda va innovatsion, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida ro'y berayotgan chuqur islohotlar, ayniqsa oliy ta'lim tizimida amlaga oshirilayotgan jadal o'zgarishlar va tayyorlanayotgan ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar salohiyatiga bog'liqdir. Bu borada tizimda ilmiy tadqiqotlarni samarali tashkil qilish, bo'lajak ilmiy tadqiqotchilar salohiyatini yanada oshirish, sohaning nazariy-metodologik jihatlariga e'tibor qaratish muhim. Zero, zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – yosh avlodni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanish olib borishga va ilmiy natijalar yaratishga yo'naltirishdan iborat. Bu jarayonning markazida esa talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularni rag'batlantirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish masalalari turadi. Ayniqsa, bugungi kunda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ilmiy tadqiqot faoliyati asosiy tayanch mezonlardan biri hisoblanmoqda[1].

Ilmiy izlanish – bu shunchaki nazariy bilimni egallash emas, balki mavjud muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar topishdir. Talabani bu jarayonga jalb etish esa pedagogik-psixologik jihatdan puxta o'ylangan yondashuvni talab qiladi. Chunki har bir talabaning

shaxsiyati, qiziqishlari, intellektual darajasi va motivatsiyasi turlicha bo'ladi. Shu bois, o'qituvchi yoki ilmiy rahbar ushbu omillarni hisobga olgan holda yondashishi lozim[2].

Manbalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga muvaffaqiyatli jalb etilgan talabalar, odatda, quyidagi xususiyatlarga ega: bilimga chanqoqlik, mustaqil fikrlay olish, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, hamda eng muhimi – o'z ustida ishlashga bo'lgan irodaviy kuch. Afsuski, aksariyat talabalar bu ko'nikmalarga ega bo'lishiga qaramay, ulardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Sababi – ilmiy yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri tashkil etishdagi bo'shliqlardir.

Psixologik jihatdan olganda, talabaning ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabati ko'p jihatdan uning o'zini anglash darajasiga bog'liq. Yani, agar talaba o'zini izlanishga layoqatli deb his etsa, bu unga ruhiy ko'tarinkilik baxsh etadi va natijada faoliyatga bo'lgan ishtiyoqi ortadi[3].

Pedagogik yondashuvda esa motivatsiyaning o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan yaratiladigan rag'batlantiruvchi muhit – bu jarayonning asosiy kalitidir. Misol uchun, fakultet yoki kafedra doirasida eng yaxshi ilmiy maqola yoki loyiha tanlovlari tashkil etilishi talabalar faolligini oshiradi. Bu esa bilim olishdan tashqari, izlanishga intilish, o'zini ko'rsatish, jamiyatda o'z o'rnini topish kabi ko'plab ijobiy sifatlarni shakllantiradi[4].

Ilmiy faoliyatga jalb etish jarayoni, shuningdek, bosqichma-bosqich tashkil qilinishi kerak. Birinchi bosqichda talabaga ilmiy izlanish nima ekanligi tushuntiriladi, ikkinchi bosqichda u mustaqil izlanish topshiriqlari orqali o'z kuchini sinab ko'radi, uchinchi bosqichda esa kichik ilmiy loyihalar ustida ishlash imkoniyati beriladi. Shu tarzda yondashilganda talabaning ichki ishonchi ortadi, natijaga bo'lgan qiziqish kuchayadi[4].

Bizning fikrimizcha, har bir talaba uchun alohida ilmiy yo'nalish tanlab berilishi, va u yo'nalish bo'yicha usta-shogird an'anasi asosida ilmiy rahbar tayinlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu usul nafaqat o'zlashtirishni chuqurlashtiradi, balki talabaning o'z ilmiy yo'nalishini barvaqt tanlashiga imkon yaratadi. Ayni vaqtda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida bu tizim qisman joriy etilgan bo'lsa-da, uni takomillashtirish zarur.

Shuningdek, o'quv jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini modellashtirish ham ijobiy samara beradi. Ya'ni, talabalar real ilmiy holatlarni tahlil qilish, tajribaviy misollar ustida ishlash orqali chuqurroq anglaydi. Bu esa nazariy bilimning amaliyot bilan uyg'unlashuviga xizmat qiladi[5].

Ayrim oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilmiy izlanishga jalb etish faqatgina ilmiy rahbar tashabbusiga bog'liq holda qolmoqda. Aslida esa bu tizim strategik reja asosida yuritilishi kerak: ya'ni, dekanat, fakultet kengashi, ilmiy bo'limlar va ilmiy rahbar o'zaro hamkorlikda ishlashi lozim. Ana shundagina bu jarayon tizimli tus oladi[6].

Shu maqsadda magistratura talabalariga dastlabki ilmiy faoliyatni tashkil qilish, ilmiy tadqiqot sohalarining nazariy-metodologik jihatlarini tahlil qilishda ilk ilmiy tadqiqot faoliyatining pedagogik va psixologik hamda metodik va amaliy jihatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, talabalarda ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilishning nazariy, ilmiy va amaliy xususiyatlari haqida keng tushunchalarni shakllantirish va ularni yanada takomillashtirish hamda amaliyotda foydalanish malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi zarur;

Ikkinchidan, ilmiy bilimlarni mustahkamlash asosida olamni tushunishga doir nazariy-metodologik tasavvurlarni boyitish, ilmiy tadqiqotchilarda ilmiy fikrlash va faoliyat ko'nikmalarini hosil qilishga ko'maklashish muhim;

Uchinchidan, ilmiy bilishning nazariy metodologiyasi asosida bo'lajak tadqiqotchilarning falsafiy, ilmiy - nazariy bilimlarini o'zaro dialektik asosda yanada chuqurroq o'zlashtirishlarini ta'minlashga xizmat qiladi;

To'rtinchidan, ilmiy tadqiqotchilardan ilmiy bilishning yangi zamonaviy usullari, yondoshuvlaridan o'z ilmiy tadqiqotlari jarayonida qo'llash va ularni amaliy o'zlashtira bilishlariga yordamlashish ahamiyatlidir;

Beshinchidan, nazariy-metodologik asos sifatida ilmiy tadqiqotchilar faoliyatida yangicha innovatsion g'oyalar va texnologiyalar hamda nou xaulardan to'g'ri foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilish ham nazariy ham amaliy yo'llanma bo'lmog'i lozim[7].

Shermuxamedova N fanda foyda keltirmaydigan, lekin «sabablar va aksiomalar»ni bilishga ko'maklashadigan tajribalar hamda foydali kashfiyotlar va ixtirolarga eltadigan tajribalar borligini ta'kidlagan edi. Yangi davrdan boshlab, fan o'zining birinchi toifadagi tajribalari ikkinchi toifadagi tajribalarga yo'l ochishiga qarab tobora ko'proq mo'ljal oladi. Fanning amaliyot sari harakatining turli bosqichlariga ilmiy tadqiqotlarning bir-biri bilan bog'langan, lekin shunga qaramay turli tiplari muvofiq keladi:

- 1) Fundamental tadqiqotlar;
- 2) Amaliy tadqiqotlar;
- 3) Tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalar;
- 4) Innovatsion tadqiqotlar;
- 5) Yoshlarning amaliy va fundamental tadqiqotlari[8].

Ilmiy faoliyatni tashkil etishda professor-o'qituvchining bilimi, tajribasi, ko'nikmasi, ilmiy-pedagogik salohiyati, mahorati hamda qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, ilmiy faoliyatni tashkil qilishni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish usulidan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Bunda talabalarning ilmiy faoliyatidagi muammolarga nisbatan o'z o'zini tanqid va ilmiy masalalarga nisbatan tahliliy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning o'rni muhimdir. Ya'ni, shu orqali ular yangilik yaratishga, kashfiyotlar qilishga to'siq bo'luvchi muammolar, ularni yechishga ko'mak beruvchi vositalardan samarali foydalanmoqdalar. Albatta, ilk ilmiy tadqiqot faoliyatini boshlash jarayonida talabalarda ko'tarinki kayfiyat, ehtiros, o'z tadqiqotlaridan ruhlanish kuzatilishi tayin. Bu, shubhasiz ilmiy faoliyat jarayonining samaradorligidan dalolatdir. Bunda o'qituvchining ilmiy salohiyati muhim hisoblanib, ilmiy faoliyatni olib boruvchiga nisbatan aniq reja va muayyan talablar qo'ya olishi zarur. Demak, o'qituvchi tomonidan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilishning ma'lum nazariyasi va metodologiyasi ishlab chiqilishi va ularni amaliyotga qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyali ilmiy mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda. Ushbu muammolar yechimini topish, ularni amalda keng qo'llashda aniq vazifalar sifatida bevosita ilmiy tadqiqot jarayonini to'g'ri tashkil qilish, ilg'or innovatsiyalar va texnologiyalardan unumli foydalanish, ilmiy tadqiqot dasturlarini jahon andozalariga mos holda yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy

pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, texnik vositalaridan, jumladan masofadan o'qitish usullaridan keng foydalanish kabilarda o'z aksini topmoqda[9].

Chunki ta'lim sifati va usuliga qarab ilm hosil bo'ladi, shu olingan bilimlar nazariy uyg'unlashtirilsa ilmiy tadqiqot uchun dastlabki ko'nikma shakllanadi. Bu o'qituvchining nafaqat mahoratini, balki talabaning istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasi hamda ilmiy faoliyatini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lganidek, ilm ham shaxsning individual ilmiy salohiyatini ko'rsatadi, uning tashabbuslari va yangilikka intiluvchanligini aniqlaydi. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon bo'lsa, ilm ob'ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson ongidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan nazariy ko'nikmalar yig'indisidir.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarni ilmiy resurslarga keng jalb etish mumkin. Masalan, ilmiy maqolalar bazalariga ulanish, virtual seminarlar, vebinarlar va ilmiy onlayn platformalar orqali global ilmiy muhitga integratsiyalashish mumkin bo'ladi. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini xalqaro darajaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi[10].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishda ularning ichki motivatsiyasi va o'zini anglash darajasini hisobga olish zarur. Psixologik yondashuvga ko'ra, inson harakati, ayniqsa, intellektual faoliyat, ichki ehtiyoj va qiziqishga bog'liq ravishda shakllanadi. Shu bois ilmiy rahbar talabaga faqatgina mavzu tanlab bermasdan, balki uni mavzuga daxldor qilish, o'z muammosini ko'rib chiqishga undashi lozim.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxs ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun unga doimiy ijobiy emotsional fon, rag'bat va o'z-o'zini anglash muhitini yaratish zarurdir[11]. Ayniqsa, birinchi bosqich talabalarining fikr yuritish doirasini kengaytirishda ilmiy rahbarning roli beqiyos. Menda quyidagi kuzatuv mavjud: ilmiy rahbar o'z shogirdiga ishonch bildirgan holatda, talaba o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va bu holat ularni ilmiy ishga jiddiy yondashishga undaydi.

Bundan tashqari, psixologik quvvat, ya'ni o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi ishonchli muloqot va emotsional yaqinlik, izlanishlarga ko'maklashuvchi kuchli omildir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab yetuk ilmiy izlanishlar aynan mehrli, tushunuvchi va yo'naltiruvchi rahbarlar bilan ishlagan talabalar tomonidan amalga oshirilgan[12].

Biznigcha, ilmiy rahbar va talaba o'rtasidagi munosabat faqat "rahbar-shogird" darajasida emas, balki sheriklik asosida qurilgani ma'qul. Zero, zamonaviy ta'lim yondashuvi talaba shaxsining faol, mustaqil fikrlovchi ishtirokchi sifatida shakllanishini taqozo etadi. Shu jihatdan, pedagog o'z faoliyatida yetakchi psixologik usullar — motivatsiya berish, emotsional qo'llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi metodlarga e'tibor qaratishi lozim[13].

Yana bir muhim omil bu — tadqiqot jarayonining ijtimoiy-psixologik muhitidir. Ilmiy muhit talabani o'z ustida ishlashga, doimiy yangilik izlashga undaydi. Bunday muhitda faoliyat yuritayotgan talabalar o'z tengdoshlari bilan fikr almashish, bahs yuritish, tahlil qilish orqali o'z ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bu esa ular uchun kuchli psixologik rag'bat bo'lib xizmat qiladi[14].

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining samarasi faqatgina akademik bilimlar bilan emas, balki talabaning ichki intilishi, hissiy barqarorligi va o'sishiga imkon yaratadigan pedagogik-psixologik muhit bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, har bir rahbar bu jarayonda psixolog bo'lishi ham, murabbiy bo'lishi ham kerak. Ilmiy tadqiqot jarayonining ilk bosqichlarida talaba ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi: mavzu tanlash, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish — bularning barchasi murakkab psixologik yuklamani talab qiladi. Bunday vaziyatda rahbar tomonidan beriladigan konstruktiv fikr-mulohazalar, sabrli va mehrli yondashuv o'quvchining ilmiy o'zligini shakllantirishda muhim vositaga aylanadi[15].

Ilmiy faoliyatdagi sifat ko'rsatkichlari uni berishda ishtirok etadigan kishilarning bilim darajasi bilan belgilanib, individual mahoratga va tashabbuslarga ham asoslanadi. Bunda ilmiy tadqiqotlarni olib borishning zarur metodologiyasi belgilab olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha ilmiy faoliyat texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy metodologik yondoshuvlarni shartli ravishda quyidagilardan iborat, deb hisoblaymiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat. Bunday ilmiy faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining faqat bir yoki bir necha ishtirokchilarining ilmiy salohiyatlarini yuzaga chiqarishni ko'zda tutadi. Bu esa ilmiy tadqiqot faoliyatni loyihalashtirishda, ilm oluvchining ma'lum Bizning va ilmiy faoliyati bilan bog'liq holda yondoshishni nazarda tutadi;

Ilmiy faoliyatga tizimli yondashuv. Ilmiy faoliyat tizimining barcha qirralarini o'zida mujassam etuvchi yondashuv bo'lib, u ilmiy faoliyat jaryonining mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'liqligi, ya'ni yaxlitligini anglatadi.

Hamkorlikda ilmiy faoliyatni tashkil etish. Ilmiy rahbar va shogird o'rtasidagi tenglik, oshkoralik, shaffoflikka asoslangan ob'ektiv munosabatlardagi hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan ilmiy natijalarni nazorat qilish va baholashni nazarda tutadi. Bunda ilmiy faoliyat mazmunini ma'lum masalalarni ilmiy tarzda tashkil qilish orqali ilm oluvchi faoliyatini to'g'ri faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilmiy faoliyatning ob'ektiv birligi yuzaga keladi va o'zaro hamkorlikda ilmiy tadqiqotning natijadorligi bilan baholanadi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida erkin bo'lish – moneliksiz ijod qilish, birovning qolipiga tushmaslik, yangi ilmiy bilimlarni olish va qayta ishlashda ob'ektiv va xolis bo'lish muhimdir. Bundan ko'rinadiki, olimlar o'z ilmiy faoliyatining maqsadlari va metodlariga o'zlari axloqiy nuqtai nazardan baho berishlari, axloqiy me'yorlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlardan voz kechishlari lozim.

Har qanday ilmiy faoliyat matnlarda "yozma" ko'rinishda (qog'ozda yoki elektron) – ilmiy hisobot, ilmiy ma'ruza, referat, maqola, kitob tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishining asosida ikki shart-sharoit yotadi.

Birinchidan, olim o'z g'oyalari va natijalarini qat'iy ilmiy tilda faqat yozma (elektron) tarzda bayon etishi mumkin. Har qanday ilmiy ishni, hatto kichkina maqolani qog'ozga tushirish, fikrning ifodasida ketma-ketlikga erishish muhim ahamiyatga ega, maqola yoki tezis yozish boshlovchi tadqiqotchi uchun jiddiy muammolar bilan bog'liq, chunki jamoa oldidagi chiqishlarda osonlik bilan aytiladigan yoki odam "ichida" tafakkurida shakllangan so'zlar va fikrlarning ifodasini o'z vaqtida qog'ozga tushirish uchun olimga mantiqiy izchillik ko'p hollarda yetishmaydi. Yozma nutq va og'zaki nutqning bir-biridan farqi shundaki, og'zaki

nutqdagi ba'zi nuqsonlar eshituvchilar tomonidan e'tiborga olinmaydi, biroq yozma matnda qat'iy mantiqiy izchillik talab etiladi, chunki undagi fikrlar ketma-ketligiga o'quvchi qayta-qayta murojaat qiladi va yangi bilimning maqsadi va mohiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Ikkinchidan, olimning salohiyati uning turli jurnallarda nashr qilgan ilmiy maqolalarining soni va salmog'i hamda respublika va xorijda o'tkazilgan konferensiyalaridagi ilmiy ma'ruzalarda aniqlanadi. Shu bois, tadqiqotchi uchun nashr etilgan ishlari ro'yxatini doimiy to'ldirib borilishi va ma'ruzalar mazmunining turli tumanligi uning imidji shakllanishiga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda tadqiqotchi yuqoridagi manbalardan to'g'ri va unumli foydalana olishi, ularni haqqoniy o'rgana olishi va tahlil qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur paragrafda pedagoik va psixologik jihatdan talabani ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabati ko'p jihatdan uning o'zini anglash darajasiga bog'liq ekanligi, ya'ni talabani o'zini izlanishga layoqatli deb his etishi muhim ahamiyat kasb etishi, pedagogik yondashuvda esa motivatsiyaning o'rni ahamiyatli ekanligi, o'ziga xos rag'batlantiruvchi muhit shakllanishi, fakultet yoki kafedra doirasida eng yaxshi ilmiy maqola yoki loyiha tanlovlari tashkil etilishi talabalar faolligini oshirishi muhimligiga e'tibor qaratildi. Bunda talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish jarayoni, shuningdek, bosqichma-bosqich tashkil qilinishi, mustaqil izlanishi, ustoz-shogird an'anasi asosida ilmiy rahbarning o'rni muhim ekanligi tasdiqlandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xolmurodov, B. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish yo'llari. – T.: Fan. 2021
2. Karimova, D. Psixologik yondashuvlar va ta'lim. – Samarqand: Iqtisod. . 2020
3. Abdullaeva, M. Ta'lim psixologiyasi asoslari. – Buxoro: Nasr. 2022.
4. Nurmatov, S. Motivatsiya va o'quv jarayoni. – T.: Ma'naviyat. 2019.
5. Qodirov, A. Pedagogik innovatsiyalar va ularning samaradorligi. – T.: Innovatsiya. 2023.
6. Mamatqulov, I. Oliy ta'limda boshqaruv tizimlari. – Namangan: Ilm ziyo. 2020
7. Oblomurodov N, Hazratqulov A, Tolipov F va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (o'quv qo'llanma)- T., 2011 y.
8. Shermuxamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. -T., 2005.-B 31
9. Tolipov F, Isroilov B. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. // O'quv-uslubiy qo'llanma. -T., 2017.
10. Ismoilov, F. Raqamli ta'lim va ilmiy izlanish. – T.: Digital Print. 2023.
11. Kolesnikova, A. M., & Dmitriev, P. V. (2020). Ilmiy izlanish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Moskva: Ta'lim nashriyoti
12. Bessonova, E. I. (2018). Talaba ilmiy faoliyatida motivatsiyaning roli. Ta'lim psixologiyasi jurnali, 35(2), 45-56.
13. Ismailov, A. M. Ta'lim jarayonida kompetensiyalarga asoslangan yondashuv. Toshkent: Milliy universitet nashriyoti 2019.
14. Yuldashev, R. A. (2021). Oliy ta'limda ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish.// Zamonaviy ta'lim, 42 (3). 120-130.
15. Ilmiy tayyorlovda samarali o'qitish strategiyalari. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent: TDPU nashriyoti. T. 2020.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.